
Rishton tumani hokimi Sufhonjon Solievning «27-iyun Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni» munosabati bilan bayram tabrigi

Hurmatli matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari!

Barchangizni 27 iyunъ – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan chin qalbidan samimiy tabriklab, sizlarga hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman. Avvalo, siz, azizlarni, sohaning muhtaram faxriylarini Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan samimiy muborakbod etib, barchangizga o'z zimning yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni bildirishdan mamnunman. Barchangizga ayonki, keyingi yillarda yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan islohotlar jarayonida ommaviy axborot vositalari sohasida ham tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. El-yurtimiz, jamoatchiligimiz matbuot nashrlari, teleradiokanallar, nashriyot va matbaa korxonalarini, Internet saytlari, axborot xizmatlarida o'z vazifasini sidqidildan ado etayotgan zahmatkash jurnalist va blogerlar, noshir va muharrirlar, tarjimon va rassomlar, rejissyor va operatorlar, barcha texnik xodimlarning mashaqqatli mehnatini yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi. Fursatdan foydalanib, doimo yangilik izlab, yangilikka intilib yashaydigan, jamiyatda yuz berayotgan muhim o'zgarishlar, ustuvor g'oya va tashabbuslarning ma'no-mohiyatini odamlarga tezkorlik va xolislik bilan yetkazadigan, hayotning qaynoq nuqtalariga dadil kirib boradigan siz, azizlarga mamlakatimiz taraqqiyotiga qo'shayotgan beqiyos hissangiz uchun chuqur minnatdorlik bildiraman.

Aziz do'stlar! Har qanday kasb ezgulikka xizmat qilar ekan, shubhasiz, xalq nazarida ulug'vor, jamiyat hayotida qadrlidir. Shu ma'noda, zimmangizdagi ulkan va zahmatli mehnatni ulug'lab, shu kasbdan qadr va sharaf topib yurganingiz Sizga Yaratganning inoyatidir. Siz azizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor qutlar ekanman, kasbingizdan doimo baraka topib yuring, el nazaridan qolmang, deyman.

Oilangizdan farovonlik, dasturxoningizdan to'kin-sochinlik arimasin. Barchangizga Vatanimiz ravnaqini, farzandlar kamolini ko'rib yashash nasib etsin. Mas'uliyatli va sharafli faoliyatingizda barchangizga yangi yutuq va omadlar yor bo'lsin!

2022-06-27 07:57:05